



ATROF-MUHIT VA BIOXILMA-XILLIKNI SAQLASHDA EKOLOGIK MADANIYATNING AHAMIYATI

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti
Biologiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchi
Ochilov Azizjon Shuxrat o'g'li
azizjonochilov9@gmail.com

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti
Biologiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasi
2-bosqich talabasi **Hosilova Noila**

Annotatsiya: Ekologik madaniyat, tabiiy muhitga ehtirom va e'tibor ko'rsatish, atrof-muhitni muhofaza qilish va xillikning qo'llanilishiga ehtiyoj tuymaslikka asoslangan. Ekologik madaniyatning bir qismi, ekologik talablar bilan amal qilishni ta'minlash, masalan, suv va energiya xajmi borasidagi istiqbollarni rivojlantirish, qirqish, uni doimo qo'llab-quvvatlash va boshqa qo'llanishni o'rganishni talab etadi. Bunday amaliyotlar tabiiy muhitni saqlashga o'z ta'sirini o'tkazadi va inson faoliyati bilan to'g'ri bog'liqliknini ta'minlaydi. Bioxilmoxil-xillik yerdagi barcha hayotning xilma-xilligini hayvonlar, o'simliklar, mikroorganizmlar, ulaming genlari va ekotizimlarini anglatadi. "Bioxilmoxil-xillik" terminida ma'lum bir organism to'g'risida biologik ma'lumot emas, balki biologik dunyoning barcha qismlari o'rtafiga o'zaro munosabat o'z aksini topadi.

Kalit so'zlar: Ekologik madaniyat, tabiiy muhitga ehtirom, ekologik va madaniy estetik ehtiyojlarini qondirish, cho'l ekotizimi, qumli cho'llar, mayda toshli cho'l, sho'rkok yerlar.

Abstract: Ecological culture is based on respect and attention to the natural environment, environmental protection and lack of need for the use of diversity. Part of environmental culture is to ensure compliance with environmental requirements, such as developing perspectives on water and energy volumes, harvesting, sustaining it, and learning other uses. Such practices have an impact on the preservation of the natural environment and ensure a proper relationship with human activities. Biodiversity refers to the diversity of all life on earth, including animals, plants, microorganisms, genes, and ecosystems. The term "biodiversity" refers not to biological information about a particular organism, but to the interaction between all parts of the biological world.

Key words: Ecological culture, respect for the natural environment, satisfaction of ecological and cultural aesthetic needs, desert ecosystem, sandy deserts, small stony desert, saline lands.

Аннотация: Экологическая культура основана на уважении и внимании к окружающей среде, охране окружающей среды и отсутствии необходимости использования разнообразия. Частью экологической культуры является обеспечение соблюдения экологических требований, таких как разработка взглядов на объемы воды и энергии, сбор урожая, его поддержание и изучение других видов использования. Такая практика оказывает влияние на сохранение природной среды и обеспечивает надлежащую связь с деятельностью человека. Биоразнообразие означает разнообразие всей жизни на Земле, включая животных, растения, микроорганизмы, гены и экосистемы. Термин «биоразнообразие» относится не к биологической информации о конкретном организме, а к взаимодействию между всеми частями биологического мира.

Ключевые слова: Экологическая культура, бережное отношение к природной среде, удовлетворение экологических и культурно-эстетических потребностей, пустынная экосистема, песчаные пустыни, малые каменистые пустыни, засоленные земли.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi "Ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son farmon ijrosini taminlash maqsadida yurtimizda ham bu borada bir qancha ishlar amalga oshirib kelinmoqda. O'zi aslida ekologik ma'daniyat nima va u qanday shakillanadi dastlab buni bilib olishimiz kerak. Demak ekologik madaniyat, atrof-muhit va biologik xillikni (bioxilma-xillik) saqlashda ahamiyatli o'rni ega. Bu madaniyat, insonlar va jamiyatning tabiiy resurslarni o'zlashtirish va saqlashga oid qadr-qimmatli qarorlar qabul qilish, tabiiy muhitni ta'sirli shakllarda saqlash, uning ehtimol bo'lgan zararlilagini belgilash va uning ustiga ishlovchi harakatlarga o'z ishtirokini oshirishga asoslangan.

Ekologik madaniyat, tabiiy muhitga ehtirom va e'tibor ko'rsatish, atrof-muhitni muhofaza qilish va xillikning qo'llanilishiga ehtiyoj tuymaslikka asoslangan. Ekologik madaniyatning bir qismi, ekologik talablar bilan amal qilishni ta'minlash, masalan, suv va energiya xajmi borasidagi istiqbollarni rivojlantirish, qirqish, uni doimo qo'llab-quvvatlash va boshqa qo'llanishni o'rganishni talab etadi. Bunday amaliyotlar tabiiy muhitni saqlashga o'z ta'sirini o'tkazadi va inson faoliyati bilan to'g'ri bog'liqlikni ta'minlaydi. Bundan tashqari, ekologik madaniyatning boshqa bir jihatni ham mavjud: atrof-muhit va biologik xilma-xillikni o'zgartirishga va ta'sirini sezishga oid ogohlantirish va ta'lism. Bu ta'lism, insonlarga muhitga munosib ravishda qarashlar, muhitni saqlashning qanchalik muhimligini tushunish, shuningdek, ularning amaliyotlari bilan biologik xillikni qo'llab-quvvatlash va uni muhofaza qilish usullarini o'rganish imkoniyatini beradi. Bu, tabiiy muhit va biologik xillikni saqlashda boshqa jamiyat a'zolari bilan hamkorlik qilish va muhitga qarshi turli turdag'i xavf va ta'sirlarga qarshi kurashishda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Jamiyatning ekologik madaniyatga o'g'irishini oshirish, insonlarga muhitga ehtirom va qadr-qimmatligini oshiradi va tabiiy muhit va biologik xillikni saqlashga oid muammolarga hal qilish yo'llarini topishga imkon beradi.

Bioxilmaxil-xillik yerdagi barcha hayotning xilma-xilligini hayvonlar, o'simliklar, mikroorganizmlar, ulaming genlari va ekotizimlarini anglatadi. "Bioxilmaxil-xillik" terminida ma'lum bir organism to'g'risida biologik ma'lumot emas, balki biologik dunyoning barcha qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabat o'z aksini topadi. Ko'pincha Bioxilma-xillik uch bosqichda ko'rib chiqildi: turlar xilma-xilligi, ya'ni barcha hayvonlar va o'simliklar xilma-xilligi, shu jumladan, qo'ziqorinlar va mikroorganizmlar; genetik materialning xilma-xilligi; ekotizimli xilma-xillik ekotizimlar xilma-xilligi (masalan, o'rmonlar, tog'lar, dasht yoki savanna, cho'llar va boshqalar). Birgalikda bu darajalar bioxilma-xillikning tarkibiy qismlarini shakllantiradi. Bioxilma-xillik-jamyatning iqtisodiy, ekologik va madaniy estetik ehtiyojlarini qondirishning dolzarb va salohiyatlari resursi hisoblanadi. U bo'lmasa jamyatning barqaror rivojlanishi mumkin emas. Biroq, bu ham ilmiy doiralarda tan olingen, dunyo genofond, biologik turlar va shakllantiradigan ekotizimlar nuqtayi nazaridan tezlik bilan yanada bir xillashib boryapdi. Buning sababi inson ta'siri bo'lib, avvalambor butun dunyo bo'ylab ta'minot, ishlab chiqarish, savdo, qishloq xo'jaligi va sanoat rivojlanishi, uy-joy qurilishi, aholi o'sishning zamonaviy modellaming tez yoyilishi bois, biologik xilmaxillikka inson ta'siri yuksak darajada o'smoqda. Bioxilma-xillikning na iqtisodiy na ekotizim ahamiyati hali keng ravishda ma'lum emas. Ayrim hollarda kishilar ekotizimi ichida biologik turlarning o'zaro bog'liqligi va qaysi bir turning yuqolishi boshqasiga ta'siri oqibatini yetarlicha tasawur qila olmayaptilar. XXI asrga qadam qo'yilishi bilan bioxilm-xillikning kamayishini sekinlashtirish va borini saqlab qolish juda katta muammoga aylanib bormoqda.

Cho'l ekotizimlari. O'zbekiston hududi tabiiy-geografik tuzilishi bo'yicha tog'lik va tekislik qismlarga bo'linadi. Ana shu ko'rsatkichlarga ko'ra flora va fauna tarkibi va ular ekologik sharoitlarning asosiy ko'rsatkichlari, muayyan farqlariga asosan ajralivchi beshta biogeografik zona aniqlangan. 1. Tekisliklaming cho'l ekotizimlari. 2. Tog'oldi yarim cho'] va dashtlar. 3. Asosiy daryolarning daryo va qirg'oqbo'yi ekotizimlari. 4. Namlangan hududlar va deltalar ekotizimlari. 5. Tog' ekotizimlari. Har bir zona turli-tuman tabiiy birliklar majmuasiga ega va ular flora va faunaning maxsus uyushmalari faoliyati va rivojlanishini aniqlaydi. Tekisliklaming cho'l ekotizimlari. Cho'l ekotizimlari Turon pasttekisligini



katta qismini egallagan bo'lib, u Qizilqumcho'li, Ustyurt platosi, Qarshi cho'li va respublika janubidagi hamda Farg'ona vodiysidagi ayrim yerlani egal lagan. Cho'l hududlari qumli sho'rxokli, soz tuproqli, toshloqli va gipsli (shag'alli) cho'llarga bo'linadi. Ularning barchasi dengiz sathidan 100 metr dan 300 metrgacha bo'lgan mutlaq balandlikda joylashgan bo'lib, bir-biriga yaqin, o'ttacha yillik harorat 11-18° C, yog'ingarchilik miqdori 100mm dan 150mm bo'lgan omillar bilan aniqlanuvchi nisbatan o'xshash iqlimi sharoitlarga ega. 0 'zbekiston cho'l ekotizimlariga boy, rang-barang flora va faunasi bilan ajralib turadi. Masalan, Qizilqumda o'simliklaming 937 turi, umurtqali hayvonlaming 500 dan ko'p turi va turdoshi, umurtqasizlaming 950 turi mavjud. Cho'l ekotizimlarining bo'Maklarini tashkil etuvchi Qizilqum qoldiq tepaliklari va Ustyurt chinki, landshaftining himoyalovchi majmuasini o'zida namoyon etadi. U yerda flora va fauna dunyosini eng boy dunyosi jamlangan. Bundan tashqari, cho'l ekotizimda ko'plab kichik suv to'planadigan havzalar borki, ularda migratsiya davrida suvda suzuvchi va botqoq qushlari uchraydi. Cho'l ekotizimi hind asalxo'ri, dasht mushugi, jayron, marmarchurak, morxo'r, boltayutar, oqboshqumoy, lochin, yo'rg'a tuvaloq va oqqorinli bulduruq kabi noyob va yo'qolib borayotgan jonzotlar yashaydigan makon hisoblanadi. Noyob suduralib yuruvchilar orasida 5 ta turi cho'larda yashaydi.

Cho'l ekotizimidagi vaqtinchalik turlarga noyob qushlarning 15 turini kiritish mumkin. Farg'ona vodiysi cho'l maydonlaridagi to'ng'izlar, to'qay kapalaklari yo'qolib borayotgan turlarga kiritilgan. Qumli cho'llar. Qumli cho'llar cho'lning qumli joylarida tarkib topadi. Qumli massivlar maydoni respublika tekislik maydoning 27% ni tashkil etadi. Eng yirik qumli massiv Qizilqumdir. Amudaryo va Qashqadaryo hududlari oralig'ida Sandiqli qumligi va Surxondaryoning quyi oqiihind Kattaqum qumligi joylashgandir. Qumli cliomlar iqlimi qattiq quruq va keskin kontinentalligi bilan ajralib turadi. Qishining minimal temperaturasi -36°, -32° C ga yctadi, yozda esa temperatura 46°, 47° C ga ko'tariladi. Yog'ingarchilik miqdori juda kam, bor-yo'g'i 75-100 mm ga yetadi. 0 'zbekistonning qumli cho'llarida gulli o'simliklaming 134 turi va 31 oilaga mansub 320 ga yaqin xillari mavjud. 171 turi haqiqiy psammoftlardir, ulardan 40 tasi gips cho'llari, 60 tasi tog'oldi va quyitog" mintaqasida o'sadi. 50% ga yaqin tur - endemik, qolganlari eron-turon, turon-kavkaz va turon-yevropa elementlaridan iborat. Daraxtbuta o'simliklar psammoft o'simliklarining asosiy qismi sanalib, floraning 30% ni tashkil etadi. Ko'p yillik o'tsimon o'simliklar guruhlari efemeroidlar (10%) va yozgi mavsumiy o'tlar (20%) namoyish etilgan. Cho'l qumlarining turlarini 40% ga yaqin turini bir yillik efemer - o'tlar va yozgi ko'karuvchilar tashkil etadi. Qumli cho'l faunasi umurtqalilaming 200 ga yaqin turlari bilan tashkil etilib, ulardan 16 turdagisi parrandalar, 150 tasi qo'nib o'tadigan va uya quruvchi qushlardan va 22 tasi suteinizuvchlardan iborat. Cho'l hayvonot dunyosi jonzotlarning qumli oiladoshlari va xarakterli vakillaridan psammofd turdagilaridir: qizil qulqoq va to 'garakboshkaltakesak hamda qo'shoyoqli!aming ba'zi turlari junayoqli, taroqbarmoqli, Iixshtenshteyn va bobrin turlari ajralib turadi. Qum sichqon va yumronqoziq cho'l kemiruvchilar orasida tipik qumli formalari vakillaridirlar. Qushlarning 50 ga yaqin turi qumli cho'l sharoitida yashashga moslashgan. Saksavulzor va butazorlar uya qo'yish uchun qulay manzil bo'lib xizmat qiladi.

Qumli cho'llar Sharqiy Yevropa va Shimoliy Osiyodan uchib o'tuvchi oqimlaming kesib o'tish rayonlari hisoblanadi va ularga qisqa muddatli qo'naIg'a vazifasini o'taydi. Bundan tashqari, yumshoq kam qorli qish, qishlash uchun shimoliy hududlardan 30 ga yaqin turdag'i qushlarni o'ziga jalb cladi. Toshloq cho'li (shag'alli, gipsli). Bu tur Ustyurt platosi, Qizilqum cho'li bir qismining asosiy landshafti hisoblanadi va respublika janubidagi tog' tizmalari etaklari bo'ylab ayrim bo'laklarni tashkil etadi. ChoMning bu xil iqlimi umuman boshqa choilam ing iqlimiga o'xshashdir. 0 'rtacha yillik harorat 10-14° C ni minimumi 32° C, maksimumi 46° C atrofida bo'ladi. Yog'ingarchilik yuqori emas - shimolda 100 mm gacha, janubiy hududlarda esa 200 mm gacha bo'ladi. Toshloq, qo'ng'ir-kulrang tuproq cho'l tuprog'ining o'ziga xos xususiyati, unda qo'ng'ir qatlarning mavjudligidir. Uning zichligi, maydatoshli va 1 metr chuqurlikkacha bo'Igan gips qatlarning ortib borishi bunga asos bo'Mgan. Qo'ng'ir qatlamlili cho'larning o'simliklarni chuqur ildiz otmaydigan, kam hosil, unumdar bo'laman qadimgi tog' tuproqlari va rango-rang qatlamlarda o'suvchi 400 ga yaqin o'simlik turlari tashkil etadi. 41 turdag'i



o'simliklaming suv-mineral oziqlanishi tuproqning gipsli qatlami bilan bog'liq. Toshloq cho'l faunasida umurtqali hayvonlar 129 turi mavjud, ulaming 11 turi sudiraluvchilar, 100 turi qushlar, 18 turi sutevizuvchilardir. Qushlarning uya quruvchilarga taalluqli 30 turi bu yerda doimiy yashaydi, ularning eng xarakterliari: suv bulduruq, qoraqorinli bulduruq, yo'rg'a tuvaloq, yapaloqqush, qoradumli tentakqush, oltin tusli ko'rkinak va 4 turdag'i to'rg'aylardir.

Mayda toshli cho'lda yashaydigan asosiy sutevizuvchilar - kemiruvchilardir, ular orasida: katta qumsiehqon, Seversov qo'shoyog'i va boshqalar bor. Cho'lning bu turi - sayog'oq va jayron kabi juft tuyoqlilaming yashash makonidir. Sudira!ib yuruvchilardan bu yerda taqir va to'garakboshlar, cho'M agamasi va choppir kaltakesaklar yashaydi. Sho'rxok cho'l. Bu tur cho'llar Ustyurt platosi sho'rlangan jismlari va yonbag'irlarida, Aydar-Aynasoy ko'llar tizimining Oyoqog'itma, Qoraxotin, Mingbuloq va boshqa oqimsiz botiqlarida va Amudaryoning hozirgi deltasida joylashgan. O'zbekistonning sho'r bosgan yerlarida o'simliklaming 304 turi uchraydi. Ulaming 1/3 qismi haqiqiy galofitlarga, 26% i Markaziy Osiyo endemiklariga, 4% O'zbekiston endemiklariga mansubdir. Sho'rxorliklaming o'ziga xos xususiyati tuproq ustki qatlamining doimo namligi va yopiq suv havzalarinig vaqtinchalik mavjudligidir. Bu turning ekologik afzaligi launaning o'ziga xos tarkibini aniqlaydi. Suvda va quruqda yashovchilar (cho'l qurbaqasi) va ko'chib yuruvchi qushlari bu yerga kelib turadi. Slio i xok clioM launasida hayvonot dunyosining 118 turi amqlangan bo'lib, ularning 7 tasi sudiralib yuruvchilar, 100 tasi qushlar va 11 tasi sutevizuvchilar. Soz tuproqli cho'l. Bu xil cho'llar Qashqadaryo havzasini, Dalvarzin va Mirzacho'l cho'llarining tuproqli va soz tuproqli qatlamlarida joylashgan.

Bu cho'llaming tuprog'i asosan och bo'z yerlarga taalluqli. Soz tuproqli cho'Har ko'proq yer usti suvlarga boydir va ularning holati ko'proq iqlimni belgilaydi. O'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdoru 200-300 mm, o'rtacha yillik harorat 14-16° C , minimum harorat -28-30° C , maksimal harorat 44° C dan 49° C gacha o'zgarib turadi. Soz tuproqli cho'l florasi mayda shag'alli (yuqoriga qaralsin) cho'l bilan bir jihatdan o'xshashlikka ega, bu yerlarda namgarchilikning yuqori bo'Mganligi sababli bahor vaqtlarida qalin o'simlik qatlami tarkib topadi. Soz tuproqli cho'l faunasini umumiyligi tarkibiga ko'ra mayda toshli cho'l faunasiga o'xshaydi. O'ziga xos jonivorlar vakillari: O'rtta Osiyo toshbaqasi, chaqqon va har xil tusdag'i kaltakesaklar, chipor ilonlar. Qushlardan ikki holli va cho'l to'rg'aylari hamda uchib o'tuvchilardan bulduruqlar, turnalar uchraydi. Soz tuproqli cho'l yo'qolib ketayotganining asosiy sababi yeriaming o'zlashtirilishidir. Mirzacho'l deyarli madaniy landshaftga aylantirildi. Qarshi cho'ii - muntazam o'zlashtirilmogda. Yaqin kelajakda bu tabiat tarkibining yo'qolib ketish xavfi ostida qolmoqda. Tog' dashtlari. Tog' dashtlari dengiz sathidan 2000-2600 metr balandlikda joylashgan bo'ladi. Asosiy tuprog'i qora bo'z tuproq, yuqori qismlarida och kulrang va jigarrang tog' dasht tuproqlardir. O'rtacha-yillik harorat 11-14° C . Bu joylarning floraviy tarkibida 48 turkum, 257 oilaga mansub 634 ta o'simlik turi mavjud. Ulardan 313 turi O'rtta Osiyo endemiklari, 476 ta O'rtta Osiyo, Old Osiyo va O'rtta yer dengizi florasi uchun umumiyligi bo'lgan o'simliklardi. 387 turlar (61%) yillik o'tlarga tegishli. Bir yillik o'simliklari 146 turni tashkil etadi, butazorlar-34, daraxtlar-15, yarim butasimonlar-52 turni tashkil etadi. Sudraluvchilar turkum guruhi Turkiston agamasi, Osiyo yalang ko'zi, uzun oyoqli stsink, sariq ilon, kaltakesak, O'rtta Osiyo kapchabosh ilonlaridan iborat. Qushlardan: dehqonchumchuq, cho'l miqqiyi, tentakqush, oltin tusli ko'rkinak, ko'k qarg'a va to'rg'aylar. Sutevizuvchilardan: cho'l sassiq ko'zani, dalasichqon, bo'rsiq, jayron uchraydi.

O'zbekistonda 27 000ta nodir va yo'qolish xavfi ostidagi turlar mavjud – ushbu bioxilma-xillikning muhofazasini yaxshilash usutvor yo'nalishga aylanishi lozim. Butun dunyoning karantinga o'tishidagi ajib «ijobiy oqibatlar» nafaqat yanada musaffo osmon va kamroq ifloslanishda namoyon bo'ldi, balki yovvoyi hayvonlarning aks holda inson hukmronlik qilgan shaharlar va boshqa aholi yashaydigan joylarda qayta paydo bo'lishida ko'rindi. COVID-19 bizning mavjudligimiz, harakatlarimiz va harakatsizligimiz bioxilma-xillikka bevosita ta'sir ko'rsatishini namoyish qildi. 22 may kuni O'zbekistondagi BMTTD vakolatxonasi Xalqaro biologik xilma-xillik kunini nishonlaydi, uning umumjahon shiori esa «Bizning qarorlarimiz - tabiatda!» bo'ladi. Biz o'z iqtisodiyotlarimiz va



jamiyatlarimizni asta-sekinlik bilan qayta tiklar ekanmiz, Yer sayyorasidagi barcha tirik jonzotlar manfaati uchun bioxilma-xillikning yo‘qolishini kamaytirish bo‘yicha faoliyat ham O‘zbekistonda, ham butun dunyoda e’tibor markaziga aylanishi kerak. O‘zbekiston bizning e’tiborimizga va himoyamizga loyiq turfahil atrof-muhitudagi nodir yovvoyi tabiatga ega. Bizning bioxilma-xilligimiz yo‘qolish xavfi ostidagi ba’zi turlarni, shu jumladan Milliy Qizil kitobga kiritilgan qor qoplonini, Buxoro bug‘usini va sayg‘oqlarni o‘z ichiga oladi.

BMTTDning mazkur nabotot va hayvonot dunyolarini himoya qilish bo‘yicha faoliyati haqiqiy barqaror taraqqiyot nafaqat bioxilma-xillikning rivojlanishdagi o‘rnini e’tirof etishi, balki uning saqlanib qolishi uchun qulay sharoitlarni ta’minlab berishi lozimligini anglash asosiga qurilgan. BMTTD O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon ilk yangi yaratilgan muhofaza qilinuvchi hududni – Quyi Amudaryo biosfera qo‘riqxonasini tashkillashtirishga yordam berdi, muhofaza qilinuvchi hududlarni kengaytirish bo‘yicha O‘zbekistonning bosh rejasini, shuningdek 2019-2028 yillardagi davr uchun Biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha Milliy strategiya i Harakatlar rejasini (BXSMSHR) ishlab chiqishda ko‘maklashdi. Tabiiy resurslarni, shu jumladan yaylovlar, nabotot va hayvonot dunyosini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish maqsadida siyosiy ko‘mak ko‘rsatildi. Amaliy ma'lumotlarga tayangan holda rejalashtirish va qarorlarni qabul qilishga ko‘maklashish maqsadida bioxilma-xillikni saqlash to‘g‘risidagi ma'lumotlarni boshqarish tizimi ishlab chiqildi.

Bioxilma-xillikni saqlash bo‘yicha loyihalar O‘zbekistondagi turli xil ekotizimlarni, shu jumladan undagi cho‘llarni, orol dengizi havzasini, qirg‘oqlar bo‘ylaridagi hududlarni, suv va botqoq hududlarni hamda tog‘larni qamrab oldi, bunda asosiy e’tibor yo‘qolish arafasidagi turlarga qaratildi. global ekologik jamg‘arma ko‘magida qor qoplonini va uning o‘ljalarini o‘rganish maqsadida qor qoplonini tadqiq qilish va kuzatish milliy dasturi shakllantirildi, shu bilan birga qor qoplonini saqlash bo‘yicha milliy dastur va harakatlar rejasi tez orada hukumatga tasdiqlanish uchun taqdim etiladi. garchi hukumat bioxilma-xillikni muhofaza qilish sohasida jiddiy natijalarga erishgan bo‘lsa-da, mamlakat uchun tabiiy resurslardan va ekotizimlardan mas’uliyatlari foydalanish aholi sonining o‘sishi va urbanizasiya, jadal islohotlar davrida o‘ta muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. O‘zbekiston ekotizimlari iqlim o‘zgarishi oldida o‘ta zaifdirlar (bioxilma-xillikning qisqarishiga olib keluvchi cho‘llanish). Orol dengizining qurib borishi – bunga achchiq dalolatdir. Bu esa iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar ekologik jihatdan barqaror va o‘zaro kelishilgan bo‘lishini taqozo qiladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro biologik xilma-xillik kuni 2001 yildan buyon har yili nishonlanadi. 2020 yilning shiori BMTning bioxilma-xillik bo‘yicha o‘n yilligining intihosidan darak beruvchi bioxilma-xillikni muhofaza qilish bo‘yicha umumjahon sa'y-harakatlarda ushbu yilning ahamiyatini aks ettiradi. Imkon bo‘lganda bioxilma-xillik bo‘yicha BMT Sammiti bo‘lib o‘tadi, ushbu tadbir 2020 yildan keyingi davr uchun bioxilma-xillikning global tarkibini shakllantirishga yordam beradi hamda 2030 yilgacha davr uchun barqaror rivojlanish sohasidagi Kun tartibiga hissa qo‘shadi. Biologik xilma-xillik – barchamiz uchun xavotir o‘yg‘otuvchi mavzudir, va barchamiz yo‘qolish xavfi ostidagi turlar va ularning yashash muhitini himoya qilishda faol ishtirot etishimiz zarurdir.

Zamonaviy ekologik xavflar, yani bugungi dunyoda muammolar, suv, havoning kasalligi, biologik xavfli moddalar, va yurish va harakatning ekologik asarlarini o‘z ichiga oladi. Bu xavflarga qarshi kurashish uchun bir nechta chorralarga ega bo‘lgan ommaviy va hodisalar keng ko‘lamli bo‘lishi zarur.

1. Yer ustidagi harakatlarni boshqarish: Transport vositalari, sanoat tizimlari, va tarim va suv bilan bog‘liq sohalarning tarkibiy qismi bo‘lib, ular ekologik xavfning katta sababchilari bo‘lishi mumkin. Bu tizimlarni yanada toza va energiyani tejamkor foydalanishni ta’minalash uchun yangi texnologiyalarga asoslanadigan qadam olib borish muhimdir.



2. O'zgartirishlar va qonunlar: Qonunlar va qoidalar kuchli tartibni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Katta kompaniyalar va davlatlar, ekologik talablar va standartlarga rioya qilishga majbur qilinishi lozim. Shuningdek, xavfli moddalar va tahliyalar uchun qayta ishlash va omborlarda turli xil moddalar uchun qonunlar kiritish ham zarur.
3. Edukatsiya va sensibilizatsiya: Fuqarolar o'z faoliyatlarining ekologik xavflarga, masalan, atikalar va suv istismori bo'yicha hukmronliklarini tushunishlari zarur. Ta'lif tizimlari, media, va jamoat tashkilotlari ommaviy o'ylarni o'zgartirish va insonlarning o'z maqsadlariga qarshi javobgarliklarini anglashda muhim rol o'ynaydi.
4. Teknologik rivojlanish: Texnologiyalar ekologik xavflarga qarshi kurashishda muhim bir qo'llanish bo'lishi mumkin. Misol uchun, atikani qayta ishlash usullari, alternativ energiya manbalarining rivojlanishi va bir-biriga qarshi imkoniyatlar, ekologik ta'sirini kamaytirish uchun muhimdir.
5. Jamiyatning ishtirok etishini ta'minlash: Ekologik xavflarga qarshi kurashishda, hamma qatnashchilarining, shu jumladan fuqarolar, korxonalar, davlat organlari, va jamoat tashkilotlari o'rtafigi ishtirok juda muhimdir. O'zaro hamkorlik va birgalikda amal qilib, o'zaro fikrlashish va hal topish muhimdir.

Bu choralarni amalga oshirish orqali, dunyo o'zining ekologik muammolarini oldini olishga va sog'liqni va ekologik muhitni saqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. D.O. Azimova, D.Sh. Yodgorova, L.Sh. Egamberdiyeva, B.T. Jabborov "Bioxilma-xillik va uning muhofazasi" Toshkent 2019 y.
2. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/news/bioxilma-xillikni-muhofaza-qilish-barchamizning-burchimizdir. Bioxilma-xillikni muhofaza qilish – barchamizning burchimizdir> 22-may, 2020 y.
3. <https://lex.uz/docs/-6479134>